

## ҚАЛБЛАРНИ ЗАБТ ЭТИШНИНГ 11 ВОСИТАСИ



Инсон бошқаларга яхши кўринишга, қалбларнинг маҳбуби бўлишга, ҳамма томонидан бирдек мақбул шахс сифатида фаолият олиб боришга интилиб яшайди. Айрим авлиёларни «Қалблар султони» дейилади. Яъни, қалбларни забт қилиб, эгаллаб, одамларнинг юрагига яқин, қалбларининг тўридан жой олган инсон сифатида кадрланиш учун нима қилиш керак? Бунинг учун Аллоҳдан ёрдам сўранг ва қуйидаги ўн битта хислат соҳибига айланинг:

**1) Очиқ юзли бўлиш керак.** Бу нарса таомдаги туз каби бўлиб, муомала маданиятининг энг зарур хислатларидан биридир. Очиқ юзлилик қалбга тезда таъсир қиладиган энг фойдали ўқлардан бири ҳисобланади. Шу билан бирга бу ибодат ҳамдир. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам: «Сенинг биродарингга қараб қилган табассуминг ҳам садақадир!» деб марҳамат қилганлар. Абдуллоҳ ибн ал-Ҳорис розияллоҳу анҳу бундай деган: «Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва салламдан кўра кўпроқ табассумлироқ кимсани кўрган эмасман».

**2) Саломни қанда қилмаслик керак.** Салом қалбнинг сувайдосига бориб тегадиган найзадир. Қучоқ очиб кутиб ол, кулиб, очиқ юз билан саломлаш ва кўлини меҳр билан қисиб қўй. Бу савоб ва ажр бўлиб, бу ажрдан биринчи сен фойдалан. Саҳоба Ибн Умар розияллоҳу анҳу ҳақида айтадилар: «Бир куни Ибн Умар розияллоҳу анҳу билан кўчага чиққан эдим, каттаю кичикдан саломини асло қанда қилмади. Ҳамма билан саломлашиб, бир оз гаплашиб ўтар эди». Ҳасан Басрий раҳимахуллоҳ: «Қўл бериб кўришиш севгини зиёда қилади», деган. «Тунд юз билан борсанг ҳам ёмон сўз айта кўрма!», «Қўл бериб кўришинглар, бу ғиллу ғашни кетказди. Бир-бирингизга ҳадиялар бериб туринг, муҳаббатни орттиради», дейилган.

**3) Ҳадиялашиб турмоқ керак.** Бу нарса кўз, қулоқ ва қалб билан таъсир килувчи ажойиб нарсадир. Одамлар бир-бирлари билан муомала қилишда ҳадиялашиб туришлари мақбул ишлардандир. Фақат ҳадия қўлдан келганича қилинади, ўзини қийнаб кўядиган бўлмаслиги керак. Иброҳим аз-Зухрий айтади: «Отамнинг олдига кирдим. У топган даромадларини сарфлаш режасини тузаётган экан. Ўзига, оиласига ва бир қанча одамларга сарфлашини айтди ва «Эслаб кўр, бирорта кимса эсдан чиқмадимикан?» деди. Мен: «Фалончи сизга салом айтиб юборган эди», дедим. Шунда отам унга ўн динор юборишимни айтдилар. Қаранг, бировга айтиб юборган саломнинг мукофоти қандай экан!

**4) Жим ўтириш ва кам сўзлаш керак.** Фақат манфаатли, фойдали вақтда сўзлашга ҳаракат қилиш лозим. Ўтиришларда баланд овозда сўзлаш, кўп гапиришдан сақлан. Гўзал иборалар билан мулойим гапиришга одатлан. «Чиройли гап садақадир!» деганлар. Қалбларни эгаллашда, хатто душманлар қалбини ҳам забт этишда чиройли ва мулойим сўзлашнинг жуда катта таъсири бор. Ойша онамиз розияллоҳу анҳу яҳудийларнинг мусулмонларга «Сизга ўлим бўлсин!» деб салом берганларига «Ва алайкум ас-сом ва-л-лаъна!» деганида, Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам: «Эй Ойша, шошма, Аллоҳ таоло ҳар бир ишда мулойимликни яхши кўради» деганлар. Буни Имом Бухорий билан Имом Муслим ривоят қилган. Яна Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам бундай деб марҳамат қилганлар: «Хусни хулкни ва камгапликни ўзингга лозим тут! Нафсим кўлида бўлган зотга қасамки, бу иккисидан гўзалроқ нарса халойиққа берилган эмас!». Уни Абу Яъло ва Баззор ўз муснад ҳадис тўпламларида ривоят қилганлар.

**5) Чиройли тинглаш ва суҳбатдошига қулоқ тутишни билмоқ керак.** Гапирувчининг гапини асло бўлмаслик лозим. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам ҳеч кимнинг гапларини бўлмас, айрим ҳолларда унинг гапини бўлишар эди. Одамларнинг гапини бўлаверадиган, гап орасига гап қўшаверадиган кимсалар одамлар қалбидан узоқ бўладилар. Тобеъинларнинг улуғларидан Ато ибн Абу Рабоҳ раҳимахуллоҳ бундай деган: «Агар биров менга гапирса, худди унинг гапини туғилганимдан буён ҳеч қачон эшитмагандек эшитиб, қулоқ солиб тураман».

**6) Зоҳирий кўринишни гўзал қилмоқ керак, кийимлар тоза-озода, хушбўйликлар сепилган бўлмоғи керак.** Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам: «Аллоҳ таоло гўзалдир, гўзалликни севади» деганлар. Инсоннинг шаклу шамойили ҳам гўзал бўлиши керак, тирноқлар олинган, сочлар таралган, юзлар тоза бўлиши лозим. Ҳазрати Умар ибн ал-Хаттоб розияллоҳу анҳу: «Мени кийимлари тоза, хушбўй ҳид анқиб турган камсуқум йигитлар жуда қизиқтиради», деганлар. Аҳмад ибн Ҳанбал раҳимахуллоҳ ҳақида айтилган: «Мен Аҳмад ибн Ҳанбалдан ҳам кўра кийимлари тоза ва оппоқроқ,

мўйлов ва сочлари, баданидаги туклари олинган, ўзига жуда қараб юрадиган кимсани учратмаганман!».

**7) Яхшилик қилиш, ҳожатбарор бўлмоқ керак.** Одамларнинг қалбини забт қилишнинг энг қулай ва осон усулларида бири одамлардан ёрдамни аямаслик, уларнинг ҳожатларини чиқариш, қийин аҳволда қолганларга ёрдам бериш, ўзининг меҳнатини доим таклиф қилиб туриш ҳисобланади. «Одамларга яхшилик қил, шунда уларнинг қалбларини ўзингга қул қилиб оласан! Кўпчилик инсонларни яхшилик қул қилиб қўяди» дейилган. «Одамларнинг Аллоҳга энг маҳбуброғи одамларга яхшилиги кўпроғидир!» дейилган ҳадиси шарифларнинг бирида. Аллоҳ таолонинг ўзи ҳам Қуръони каримда: «Яхшилик қилинлар, Аллоҳ яхшилик қилувчиларни севади» деган. Қул ва хизматкорларни қанча-қанча пулларга сотиб олишади, одамларга яхшилик қилинса, уларнинг ўзлари қул ва хизматкор бўлиб келишади-ку!

**8) Мол-мулкидан сарф қилиб туриш керак.** Ҳар бир насанинг калити бор бўлганидек, бугунги кундаги қалбларнинг аксариятининг калити мол-мулкдир. Уларга пуллардан эҳсон қилиб, сарф қилиб туриш керак бўлади. Макка фатҳи кунида кофирларнинг улуғларидан ва Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва салламга ашаддий душман бўлганлардан бири Сафвон ибн Умаййа мол-мулкидан керагини олиб қочиш кетади. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам Макка аҳолисига умумий авф-омонлик берганларидан сўнг қайтиб келади. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва салламдан у исломга кириши учун икки ой муҳлат сўрайди. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам унга тўрт ой муҳлат берадилар. У Ҳунайн ва Тоифдаги жангларда Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам тарафида туриб кофир ҳолида қатнашади. Тоиф қамалидан сўнг кўпгина ўлжалар қўлга киритилади. Сафвоннинг бир дарага қўйилган ўлжаларга хирс билан тикилиб турганини кўриб, Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам: «Булар сенга керакми, керак бўлса олақол, буларнинг ҳаммаси сеники» дейдилар. Шунда Сафвон: «Бундай покиза қалб фақат ҳақиқий пайғамбарларда бўлиши мумкин» дея калима келтириб, мусулмон бўлади.

**9) Бошқаларга нисбатан яхши гумонда бўлиш ва уларнинг узрларини доимо қабул қилиш керак.** Қалбларни забт қилишнинг энг осон услубларидан бири ҳамиша яхши гумон қилишдир. Ҳаммани ўзинга ўхшатгин, барчага нисбатан яхши гумон қилгин. Ёмон гумондан доимо узоқ бўлгин. Кўзинг кўрган нарсага ишонаверма, кўрганингни ақлинг тарозисига тортиб кўр. Шоир ал-Мутанаббий: «Инсоннинг феъли бузилса, гумони ҳам бузилади» деган эди. Кечиримли бўл, одамларнинг узрини қабул қилишни ўрган. Абдуллоҳ ибн ал-Муборак раҳимаҳуллоҳ: «Ҳақиқий мўъмин одамларнинг узрларини қабул қилади. Мунофиқ эса уларни узр айтишга ҳам қўймайди», деган.

**10) Бошқаларга нисбатан бўлган севги ва меҳрни билдириб турмоқ керак.** Бировни яхши кўриб қолсанг, унинг қадр-мартабаси сенинг олдинда кўтарилган бўлса, уни ўзига билдириб қўй. Чунки, бу нарса унинг қалбини забт этишинга кўмакчи бўлади. Имом Термизий раҳимахуллоҳ: «Сизлардан бирингиз дўстини яхши кўрса, унинг уйига келсин ва яхши кўрганини унга билдириб қўйсин!» деган ҳадисни ривоят қилган. Унинг «Мана шу нарса дўстликни боқий, севгини мустаҳкам қилади» деган қўшимчаси ҳам бор. Лекин бу нарса Аллоҳ учун бўлиши керак, мол-дунё орттириш, мансабларга кўтарилиш, бойларни бойлиги учун севиш, шуҳрат орттириш мақсадида бўлмаслиги лозим. Аллоҳга душман бўлганлар билан дўстлашиш дунёда ҳасрат, қиёматда эса надоматдир. Зотан, инсон қиёмат куни ўз севганлари ва ёқтирганлари билан бирга бўлади! Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам ансорлар билан муҳожирларни бир-бирларига дўстлаштирган эдилар. Бир ғазотда қабр қовлаш оғир бўлганидан икки одамни бир қабрга қўйилди. Шунда Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам дўстни дўст билан бирга қўйган эдилар.

**11) Мадоро ва муроса билан яшамоқ керак.** Ҳамма билан муросада бўлиш лозим. Аччиқланиш, гина-кудурат сақлаш ҳеч кимга наф келтирган эмас. Имом Бухорийнинг бир ҳадиси бор. Ойша онамиз розияллоҳу анҳудан қилинган ривоят бу: Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва салламнинг олдиларига бир кимса киришга изн сўрабди. Унинг кириб келаётганини кўриб, Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам: «Жудаям ёмон қариндош бу!» дедилар. У келиб ўтирганидан сўнг Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам у билан очик юз ва табассум билан яхши муомалада суҳбатлашдилар. Ўша кимса қайтиб кетганидан сўнг Ойша розияллоҳу анҳу: «Уни кўрганингиз заҳотиёқ ундай-бундай деб гапираётган эдингиз, келганида эса очик юз ва табассум билан муомала қилдингиз» деди. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам: «Мени қачон ёмон ҳолатда кўргансан, қиёмат кунида Аллоҳ олдида одамларнинг энг ёмони одамларни ёмонлик ила кутиб оладиган кимсадир» дедилар. Ибн Ҳажар Асқалоний раҳимахуллоҳ «Фатҳ ал-Борий»да мана шу ҳадис мадоро ва муроса билан яшаш кераклигига асосий далилдир, деган. Имом Қуртубий раҳимахуллоҳ мадоро билан мадоро (мудоҳана)нинг фарқи бор. Дунё ва диннинг салоҳияти учун дунёни сарфлаш яхши ва мақбул муросадир. Дунёнинг ислоҳи учун динни сарфлаш, тарк қилиш ёмон муросадир, деган экан. Юмшоқ сўзли бўлиш, очик юзлилик ёмон ва ифлос кимсаларнинг шарридан сақланиш воситаси, шу сабабли у диний эҳтиёжларни қондириш василаси бўлиши мумкин. Шунинг учун ҳам Имом Табароний раҳимахуллоҳ ва Ибн ас-Сунний раҳимахуллоҳ ривоятларида: «Мадорат ун-носс садақатун!» («Одамларга мадора-муроса қилиш садақадир!») дейилган. Ибн ал-Баттол раҳимахуллоҳ айтади: «Мадоро ва муроса билан яшаш мўмин-

мусулмонларнинг ахлоқларидандир. У одамларга доим яхшилик қилиш, яхши муомалада бўлиш, асло ёмон гапирмасликдир».

Юқоридагиларга амал қилиш инсониятни барчанинг кўзи ва қалбига яхши кўрсатиб кўяди. Қалбларни забт этишнинг имкониятлари мана шу ўн битта нарсада жам бўлган бўлса ажаб эмас. Сиз ҳам амал қилиб кўринг!

**Ҳамидуллоҳ Беруний**

### **Qalblarni zabt qilishning 11 ta vositasi**

Inson boshqalarga yaxshi ko`rinishga, qalblarning mahbubi bo`lishga, hamma tomonidan birdek maqbul shaxs sifatida faoliyat olib borishga intilib yashaydi. Ayrim avliyolarni «Qalblar sultoni» deyiladi. Ya`ni, qalblarni zabt qilib, egallab, odamlarning yuragiga yaqin, qalblarining to`ridan joy olgan inson sifatida qadrlanish uchun nima qilish kerak? Buning uchun Allohdan yordam so`rang va quyidagi o`n bitta xislat sohibiga aylaning:

**1) Ochiq yuzli bo`lish kerak.** Bu narsa taomdagi tuz kabi bo`lib, muomala madaniyatining eng zarur xislatlaridan biridir. Ochiq yuzlilik qalbga tezda ta`sir qiladigan eng foydali o`qlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga bu ibodat hamdir. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Sening birodaringga qarab qilgan tabassuming ham sadaqadir!» deb marhamat qilganlar. Abdulloh ibn al-Horis roziyallohu anhu bunday degan: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan ko`ra ko`proq tabassumliroq kimsani ko`rgan emasman».

**2) Salomni kanda qilmaslik kerak.** Salom qalbnig suvaydosiga borib tegadigan nayzadir. Quchoq ochib kutib ol, kulib, ochiq yuz bilan salomlash va qo`lini mehr bilan qisib qo`y. Bu savob va ajr bo`lib, bu ajrdan birinchi sen foydalan. Sahoba Ibn Umar roziyallohu anhu haqida aytadilar: «Bir kuni Ibn Umar roziyallohu anhu bilan ko`chaga chiqqan edim, kattayu kichikdan salomini aslo kanda qilmadi. Hamma bilan salomlashib, bir oz gaplashib o`tar edi». Hasan Basriy rahimahulloh: «Qo`l berib ko`rishish sevgini ziyoda qiladi», degan. «Tund yuz bilan borsang ham yomon so`z ayta ko`rma!», «Qo`l berib ko`rishinglar, bu g`illu g`ashni ketkazadi. Bir-biringizga hadiyalar berib turing, muhabbatni orttiradi», deyilgan.

**3) Hadiyalashib turmoq kerak.** Bu narsa ko`z, quloq va qalb bilan ta`sir qiluvchi ajoyib narsadir. Odamlar bir-birlari bilan muomala qilishda hadiyalashib turishlari maqbul ishlardandir. Faqat hadiya qo`ldan kelganicha qilinadi, o`zini qiynab qo`yadigan bo`lmasligi kerak. Ibrohim az-Zuhriy aytadi: «Otamning oldiga kirdim. U topgan daromadlarini sarflash rejasini tuzayotgan ekan. O`ziga, oilasiga va bir qancha odamlarga sarflashini aytdi va «Eslab ko`r, birorta kimsa esdan chiqmadimikan?» dedi. Men: «Falonchi sizga salom aytib yuborgan edi», dedim. Shunda otam unga o`n dinor yuborishimni aytdilar. Qarang, birovga aytib yuborgan salomning mukofoti qanday ekan!

**4) Jim o`tirish va kam so`zlash kerak.** Faqat manfaatli, foydali vaqtda so`zlashga harakat qilish lozim. O`tirishlarda baland ovozda so`zlash, ko`p gapirishdan saqlan. Go`zal iboralar bilan muloyim gapirishga odatlan. «Chiroyli gap sadaqadir!» deganlar. Qalblarni egallashda, hatto dushmanlar qalbini ham zabt etishda chiroyli va muloyim so`zlashning juda katta ta`siri bor. Oysha onamiz roziyallohu anhu yahudiylarning musulmonlarga «Sizga o`lim bo`lsin!» deb salom berganlariga «Va alaykum as-som va-l-la`na!» deganida, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Ey Oysha, shoshma, Alloh taolo har bir ishda muloyimlikni yaxshi ko`radi» deganlar. Buni Imom Buxoriy bilan Imom Muslim rivoyat qilgan. Yana Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bunday deb marhamat qilganlar: «Husni xulqni va kamgaplikni o`zingga lozim tut! Nafsim qo`lida bo`lgan zotga qasamki, bu ikkisidan go`zalroq narsa xaloyiqqa berilgan emas!». Uni Abu Ya`lo va Bazzor o`z musnad hadis to`plamlarida rivoyat qilganlar.

**5) Chiroyli tinglash va suhbatdoshiga quloq tutishni bilmoq kerak.** Gapiruvchining gapini aslo bo`lmaslik lozim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hech kimning gaplarini bo`lmas, ayrim hollarda uning gapini bo`lishar edi. Odamlarning gapini bo`laveradigan, gap orasiga gap qo`shaveradigan kimsalar odamlar qalbidan uzoq bo`ladilar. Tobe`nlarning ulug`laridan Ato ibn Abu Raboh rahimahulloh bunday degan: «Agar birov menga gapirsa, xuddi uning gapini tug`ilganimdan buyon hech qachon eshitmagandek eshitib, quloq solib turaman».

**6) Zohiriy ko`rinishni go`zal qilmoq kerak, kiyimlar toza-ozoda, xushbo`yliklar sepilgan bo`lmog`i kerak.** Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Alloh taolo go`zaldir, go`zallikni sevadi» deganlar. Insonning shaklu shamoyili ham go`zal bo`lishi kerak, tirnoqlar olingan, sochlar taralgan, yuzlar toza bo`lishi lozim. Hazrati Umar ibn al-Xattob roziyallohu anhu: «Meni kiyimlari toza, xushbo`y hid anqib turgan kamsuqum yigitlar juda qiziqtiradi», deganlar. Ahmad ibn Hanbal rahimahulloh haqida aytilgan: «Men Ahmad ibn Hanbaldan ham ko`ra kiyimlari toza va oppoqroq, mo`ylov va sochlari, badanidagi tuklari olingan, o`ziga juda qarab yuradigan kimsani uchratmaganman!».

**7) Yaxshilik qilish, hojatbaror bo`lmoq kerak.** Odamlarning qalbini zabt qilishning eng qulay va oson usullaridan biri odamlardan yordamini ayamalik, ularning hojatlarini chiqarish, qiyin ahvolda qolganlarga yordam berish, o`zining mehnatini doim taklif qilib turish hisoblanadi. «Odamlarga yaxshilik qil, shunda ularning qalblarini o`zingga qul qilib olasan! Ko`pchilik insonlarni yaxshilik qul qilib qo`yadi» deyilgan. «Odamlarning Allohga eng mahbubrog`i odamlarga yaxshiligi ko`prog`idir!» deyilgan hadisi shariflarning birida. Alloh taoloning o`zi ham Qur`oni karimda: «Yaxshilik qilinglar, Alloh yaxshilik qiluvchilarni sevadi» degan. Qul va xizmatkorlarni qancha-qancha pullarga sotib olishadi, odamlarga yaxshilik qilinsa, ularning o`zlari qul va xizmatkor bo`lib kelishadi-ku!

**8) Mol-mulkidan sarf qilib turish kerak.** Har bir nasaning kaliti bor bo`lganidek, bugungi kundagi qalblarning aksariyatining kaliti mol-mulkdir. Ularga pullardan ehson qilib, sarf qilib turish kerak bo`ladi. Makka fathi kunida kofirlarning ulug`laridan va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga ashaddiy dushman bo`lganlardan biri Safvon ibn Umayya mol-mulkidan keragini olib qochib ketadi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Makka aholisiga umumiy avf-omonlik berganlaridan so`ng qaytib keladi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan u islomga kirishi uchun ikki oy muhlat so`raydi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam unga to`rt oy muhlat beradilar. U Hunayn va Toifdagi janglarda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam tarafida turib kofir holida qatnashadi. Toif qamalidan so`ng ko`pgina o`ljalar qo`lga kiritiladi. Safvonning bir daraga qo`yilgan o`ljalarga hirs bilan tikilib turganini ko`rib, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Bular senga kerakmi, kerak bo`lsa olaqol, bularning hammasi seniki» deydilar. Shunda Safvon: «Bunday pokiza qalb faqat haqiqiy payg`ambarlarda bo`lishi mumkin» deya kalima keltirib, musulmon bo`ladi.

**9) Boshqalarga nisbatan yaxshi gumonda bo`lish va ularning uzrlarini doimo qabul qilish kerak.** Qalblarni zabt qilishning eng oson uslublaridan biri hamisha yaxshi gumon qilishdir. Hammani o`zinga o`xshatgin, barchaga nisbatan yaxshi gumon qilgin. Yomon gumondan doimo uzoq bo`lgin. Ko`zing ko`rgan narsaga ishonaverma, ko`rganingni aqling tarozisiga tortib ko`r. Shoir al-Mutanabbiy: «Insonning fe`li buzilsa, gumoni ham buziladi» degan edi. Kechirimli bo`l,

odamlarning uzrini qabul qilishni o`rgan. Abdulloh ibn al-Muborak rahimahulloh: «Haqiqiy mo`min odamlarning uzrlarini qabul qiladi. Munofiq esa ularni uzr aytishga ham qo`ymaydi», degan.

**10) Boshqalarga nisbatan bo`lgan sevgi va mehrni bildirib turmoq kerak.** Birovni yaxshi ko`rib qolsang, uning qadr-martabasi sening oldingda ko`tarilgan bo`lsa, uni o`ziga bildirib qo`y. Chunki, bu narsa uning qalbini zabt etishga ko`makchi bo`ladi. Imom Termiziy rahimahulloh: «Sizlardan biringiz do`stini yaxshi ko`rsa, uning uyiga kelsin va yaxshi ko`rganini unga bildirib qo`ysin!» degan hadisni rivoyat qilgan. Uning «Mana shu narsa do`stlikni boqiy, sevgini mustahkam qiladi» degan qo`shimchasi ham bor. Lekin bu narsa Alloh uchun bo`lishi kerak, mol-dunyo orttirish, mansablarga ko`tarilish, boylarni boyligi uchun sevishtirish, shuhrat orttirish maqsadida bo`lmasligi lozim. Allohga dushman bo`lganlar bilan do`stlashish dunyoda hasrat, qiyomatda esa nadomatdir. Zotan, inson qiyomat kuni o`z sevganlari va yoqtirganlari bilan birga bo`ladi! Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ansorlar bilan muhojirlarni bir-birlariga do`stlashtirgan edilar. Bir g`azotda qabr kovlash og`ir bo`lganidan ikki odamni bir qabrga qo`yildi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam do`stni do`st bilan birga qo`ygan edilar.

**11) Madoro va murosa bilan yashamoq kerak.** Hamma bilan murosada bo`lish lozim. Achchiqlanish, gina-kudurat saqlash hech kimga naf keltirgan emas. Imom Buxoriyning bir hadisi bor. Oysha onamiz roziyallohu anhudan qilingan rivoyat bu: Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning oldilariga bir kimsa kirishga izn so`rabdi. Uning kirib kelayotganini ko`rib, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Judayam yomon qarindosh bu!» dedilar. U kelib o`tirganidan so`ng Rasululloh sollallohu alayhi va sallam u bilan ochiq yuz va tabassum bilan yaxshi muomalada suhbatlashdilar. O`sha kimsa qaytib ketganidan so`ng Oysha roziyallohu anhu: «Uni ko`rganingiz zahotiyoyq unday-bunday deb gapirayotgan edingiz, kelganida esa ochiq yuz va tabassum bilan muomala qildingiz» dedi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Meni qachon yomon holatda ko`rgansan, qiyomat kunida Alloh oldida odamlarning eng yomoni odamlarni yomonlik ila kutib oladigan kimsadir» dedilar. Ibn Hajar Asqaloni rahimahulloh «Fath al-Boriy»da mana shu hadis madoro va murosa bilan yashash kerakligiga asosiy dalildir, degan. Imom Qurtubiy rahimahulloh madoro bilan madoro (mudohana)ning farqi bor. Dunyo va dinning salohiyati uchun dunyoni sarflash yaxshi va maqbul murosadir. Dunyoning islohi uchun dini sarflash, tark qilish yomon murosadir, degan ekan. Yumshoq so`zli bo`lish, ochiq yuzlilik yomon va iflos kimsalarning sharridan saqlanish vositasi, shu sababli u diniy ehtiyojlarni qondirish vasilasi bo`lishi mumkin. Shuning uchun ham Imom Tabaroniy rahimahulloh va Ibn as-Sunniy rahimahulloh rivoyatlarida: «Madorat un-noss sadaqatun!» («Odamlarga madoro-murosa qilish sadaqadir!») deyilgan. Ibn al-Battol rahimahulloh aytadi: «Madoro va murosa bilan yashash

mo«min-musulmonlarning axloqlaridandir. U odamlarga doim yaxshilik qilish, yaxshi muomalada bo`lish, aslo yomon gapirmaslikdir».

Yuqoridagilarga amal qilish insoniyatni barchaning ko`zi va qalbiga yaxshi ko`rsatib qo`yadi. Qablarni zabt etishning imkoniyatlari mana shu o`n bitta narsada jam bo`lgan bo`lsa ajab emas. Siz ham amal qilib ko`ring!

**Hamidulloh Beruniy**